



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TABIIY-ILMIY
DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Umbarova Nasiba Xolboy qizi

Termiz davlat universiteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 1-kurs tayanch
doktaranti umbarovanasiba@96gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tabiiy fanlar mazmuni orqali o'quvchilarda ilmiy fikrlash, tabiat hodisalarini tushunish hamda ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada boshlang'ich ta'lim uchun mos bo'lgan metodlar va pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, tabiiy-ilmiy dunyoqarash, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, ilmiy fikrlash, ekologiya, integratsiya, kuzatish, taqqoslash.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of forming a natural-scientific worldview in primary school students. Through the content of natural sciences, the issues of developing scientific thinking, understanding natural phenomena on a scientific basis, and fostering environmental awareness among students are analyzed. The article also proposes effective teaching methods and pedagogical approaches appropriate for the primary education level.

Keywords: natural-scientific worldview, primary education, natural sciences, scientific thinking, ecology, observation, worldview, integration, comparison.

Kirish: XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi [2]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da "umumiy o'rta ta'limning turlari, bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi"ni ta'minlash alohida belgilangan [1]. Zamonaviy jamiyatda ilm-fan yutuqlariga asoslangan tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiat hodisalarini ilmiy asosda tushunish, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash va ekologik mas'uliyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilar orasida tabiiy ilmiy-dunyoqarashni shakllantirish asosiy o'rin tutmoqda. Tabiiy-ilmiy dunyoqarash tabiiy fan sohasida ilmiy bilimlar, tajriba va kuzatishlar orqali dunyoni o'rganish va tushinish yo'li hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilarda tabiiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta'lim tizimining asosidir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Tabiatshunos olim V.I. Vernandskiy (1863—1945) fan tarixiga shakllanuvchi va rivojlanuvchi ilmiy dunyoqarash sifatida qarash g'oyasini ilgari surdi. Qadimgi yunonliklar, umuman, olam tuzilishi va uni tashkil qiluvchi narsalarning rivojlanishi, paydo bo'lishini tushuntirish, izohlashga harakat qiladilar. Bu tasavvurlar



keyinchalik naturfalsafa deb atala boshlandi. Naturfalsafa (tabiat falsafasi) bevosita tabiatni bir butunlikda tushunuvchi va ba'zi tabiiy-ilmiy tushunchalarga tayanuvchi falsafiy qarashlardir. Bu g'oyalarning ba'zilari hozirgi zamon tabiatshunosligida ham qo'llanilmoqda.[3.48-b]

O'quvchilarni tabiiy dunyo bilan tanishtirishda taniqli rus jamoat arbobi N.I. Novikov. U o'zining "Bolalarga ta'lim va tarbiya to'g'risida" maqolasida bolalarni tashqariga olib chiqishni va ularga yer boyliklari qanday etishtirilishi va inson foydalanishi uchun tayyorlanishini ko'rsatishni tavsiya qildi.[4. 5-b]

Ilmiy dunyoqarash shaxs ongida tabiiy olam ilmiy manzarasining umumlashgan tizimi sifatida tabiiy dunyo va jamiyat rivojlanishining umumiy tendensiyalarini tushinishga asos bo'lib xizmat qiladi.[5.3-b] Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosining falsafiy masalalari rossiyalik olimlar V.I.Drigin, V.N.Usova, V.I.Filatovlar, respublikamizda esa J.T.Tulenov.S.I.Valiyeva,K.J.Tulenovalar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolalarda tabiat, atrof-muhit va kundalik hayotda uchraydigan hodisalarga nisbatan dastlabki ilmiy tasavvurlar yuzaga keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Muhokama va natijalar: Dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Ilmiy dunyoqarash - bu insonlarning ilmiy bilimlar, tajribalar va tushunchalar orqali dunyoni anglash va tushunish usuli. Bu dunyoqarash, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlar asosida shakllanadi, hamda ilmiy usul va tadqiqot prinsiplariga tayangan holda universal haqiqatlarni ochib berishga qaratilgan. Ilmiy dunyoqarash jismoniy dunyoni yaxlit idrok etishning asosidir.

Tabiiy-ilmiy dunyoqarash — bu o'quvchining tabiat, tirik va jonsiz olam, biologik, fizik va kimyoviy jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlari, e'tiqodlari, qadriyatlar va fikrlash usullarining yaxlit tizimidir. U o'quvchining real hayot hodisalariga ilmiy yondashuvini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

1.O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri asosan ko'rgazmali-obrazli bo'ladi. Shu sababli tabiiy fanlarni o'qitishda rasm, maket, tajriba va jonli kuzatishlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Bundan tashqari o'qitilayotgan mavzular sipiralsimon holda bir-birini to'ldirib borishi lozim.

2. Ilmiy bilishning boshlang'ich shakllarini o'quvchilarga sodda qilib tushintirib berish.

- kuzatish;
- taqqoslash;



- oddiy xulosalar chiqarish;
- sabab-oqibat bog'lanishini tushinish

Ushbu jarayonlar o'quvchilarda ilmiy fikrlashning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy bilish jarayoni, avvalo, kuzatish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Kuzatish — bu tabiat hodisalarini bevosita idrok etish, ularni taqqoslash va oddiy xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy bilishning boshlang'ich shaklidir.

Kuzatish orqali ilmiy bilish jarayonida o'quvchilar tabiat hodisalarini farqlashni, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashni, sabab–oqibat bog'lanishlarini tushunishni, oddiy ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarda ilmiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi.

Tabiat hodisalarini kuzatish

- ob-havo o'zgarishi, yomg'ir, qor, shamol, fasllar almashinuvi.

O'simliklarni kuzatish

- urug'ning unishi, o'simlikning o'sishi, barg rangining o'zgarishi.

Hayvonot olamini kuzatish

- qushlar, uy hayvonlari, hasharotlarning harakati va yashash muhiti.

Kundalik hayotdagi hodisalarni kuzatish

- suvning muzlashi va erishi, yorug'lik va soya, issiq va sovuq ta'siri.

3. Tizimli va yaxlit yondashuv. Tabiat hodisalari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tushuntirilishi lozim. Masalan, suv, havo, o'simlik va hayvonot olami o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatish orqali o'quvchilarda olamning yaxlit manzarasi shakllanadi.

4. Fanlararo integratsiya. Tabiatshunoslik darslarida o'qish, matematika va texnologiya fanlari bilan bog'liq topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

5. Ekologik tarbiya. Daraxt ekish, tabiatni asrashga oid suhbatlar va kichik loyihalar orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat shakllanadi.

Xulosa: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon bo'lib, u yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Kuzatish, tajriba, fanlararo integratsiya va ekologik tarbiya orqali o'quvchilarda ilmiy fikrlash va tabiatga ongli munosabat shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida olamning yaxlitlik manzarasini shakllantirish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlararo bog'liqlikni anglashlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari”. (www.Ziynet.uz)



2. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

3. N. Shermuhammedova. Falsafa va fan metodologiyasi. T. «Aloqachi», 2008, 400 bet.

4. Е.Д. Ли, А. Б. Ибашова, В.А. Кубиева, Н.Н. Ханина. Теория и методика преподавания естествознания в начальных классах для студентов специальности «Педагогика и методика начального обучения»: учебное пособие – Костанай: КГПИ, 2017.

5. Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish azariyasi va amaliyoti. Monografiya. Toshkent "Navro'z" -2018.

6. Umbarova Nasiba Xolboy qizi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda olamning yaxlitlik manzarasini shakllantirish imkoniyatlari. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025, №3